

**Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti korrupsiyaga qarshi  
kurashish bo'yicha  
SIYOSATI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

Ushbu Siyosat Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti (keyingi o'rinnlarda – institut)da halollik siyosatini ta'minlash, ya'ni korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini oshirish maqsadida, yuksak xulq-atvor standart talablariga muvofiqlik, lavozim (xizmat) majburiyatlarini bajarishda institut xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikka doir pozitsiyasini ifodalaydi.

Ushbu Siyosat O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son "Institut faoliyatining ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdag'i 62-son "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq korruptsiyaga qarshi kurash sohasidagi xalqaro tizimlar tavsiyalari va ilg'or dunyo tajribasi, jumladan ISO 37001:2016 "Korruptsiyaga qarshi kurash menejmenti tizimi – Talablar va ularni qo'llashga doir tavsiyalar" xalqaro standarti talablari va tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Institut Siyosatni o'z faoliyati spetsifikasidan kelib chiqib qabul qiladi, o'ziga xos va qoldiq korruptsiyaviy xavf-xatar, tajriba va mavjud resurslar asosida korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z mexanizmlarini ishlab chiqadi va joriy etadi. Bunda, korruptsiyaga qarshi talablar mazkur siyosat va institutning ichki hujjatlarida belgilangan talablardek qat'iy bo'lishi kerak.

Quyidagilar institutda korruptsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadi hisoblanadi:

- institut xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va korruptsiyaga qarshi kurashishga doir ichki me'yoriy-xuquqiy hujjatlar talablarini tushunishi va amal qilishi;
- institutda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va korruptsiyaga barham berish;
- institut faoliyatida korruptsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- institut xodimlari va talabalarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini oshirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

- institut xodimlari faoliyatiga shaffofligi va xulq-atvor me'yorlariga muvofiqligini ta'minlash;
- korrupsiyaviy harakatlarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, oqibatlari, keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy harakatlarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash;
- institutda mavjud korrupsiyaga barham berish.

Mazkur Siyosat talablari egallab turgan lavozimi va bajarayotgan faoliyati funksiyasidan qat'iy nazar, institutning barcha xodimlari uchun birdek amal qiladi.

Institutga ishga qabul qilinadigan har qanday shaxs mazkur Siyosat bilan imzo chekkan holda tanishishlari, uning qonun-qoidalariga rioya qilishi lozim.

Mazkur Siyosatning maqsadlari uchun quyidagi asosiy tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

**xayriya (xayriya yordami)** – yuridik va jismoniy shaxslar (xayriya qiluvchilar)ning institut uchun bepul yoki imtiyozlar asosida moddiy va yoki nomoddiy boyliklar, xususan, pul mablag'lari shaklidagi boyliklarni topshirish, ular uchun ma'lum ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va xayriya maqsadlaridagi boshqa qo'llab-quvvatlashlarni taqdim etishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy beg'araz yordami;

**yaqin qarindoshlar** – bir-biriga qarindoshlik yoki yaqin aloqasi bor shaxslar, ya'ni ota-onas, tug'ishgan hamda tutingan aka-ukalar va opa-singillar, er-xotin, farzandlar (jumladan asrab olingan farzandlar), buvalar, buvilar, nabiralar, shuningdek er (xotin)ning ota-onasi, tug'ishgan va tutingan aka-ukalari va opa-singillari;

**mansabdor shaxs:** doimiy, vaqtincha yoxud maxsus vakolat bo'yicha tayinlanadigan, saylanadigan, hokimiyat vazifalarini bajaradigan yoxud davlat organlarida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida, mulk shaklidan qat'iy nazar, korxonalarda, muassasalarda, vazirlik tizimlarida tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini amalgalash oshiradigan va yuridik ahamiyatga ega harakatlarni sodir etishga vakolat berilgan shaxs;

xalqaro, institut yoxud chet davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, ma'muriy yoki sud organida mazkur vazifalarni amalga oshiruvchi shaxs;

**davlat organlari va muassasalari** – davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari (jumladan, vazirliliklar, xizmatlar, agentlik, markazlar va boshqa idoralar) va ularning tarkibiy bo'linmalari, shuningdek davlat tomonidan bevosita yoki bilvosita nazorat qilinadigan yuridik shaxslar;

**korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilganligi to'g'risida vijdonan xabar berish** – institut xodimi tomonidan korrupsiyaviy huquqbazarlik sodir etilganligi (sodir etishga urinish bo'lganligi) to'g'risida xodimi yoki boshqa shaxs tomonidan asosliliga ishonch hosil qilgan holda institut aloqa kanallari orqali yo'llangan murojaat;

**Xizmat va ish faoliyati yuzasidan mehmono'stlik belgilari** – uchinchi shaxslarning hamkorlik o'rnatish va yoki uni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq bo'lgan, institut xodimlarining sodiqligini oshirishga qaratilgan, institut xodimlari manfaatlari yo'lidagi xarajatlari, jumladan uchinchi shaxslarning ovqatlanishi, ish faoliyati yuzasidan ziyofatlar tashkil etilishi bilan bog'liq xarajatlari, transport xarajatlari, yashash, ko'ngilochar tadbirlar, jumladan sayohat dasturlari bilan bog'liq xarajatlar va h.k.;

**urug'-aymoqchilik** – institut xodimining avlod-ajdodlari o'zaro qarindosh-urug'lar

bir bo‘lgan, bir sulolaga mansublik asosida uchinchi shaxslarga nisbatan subyektiv, imtiyozli va noxolis munosabat shaklidagi shaxsiy manfaatdorligi;

**komplaens** – institutdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tadbirlarni qonun talablari, muvofiqlashtiruvchilar, manfaatdor tomonlarning, biznes amaliyotlar, xulq-atvor me’yorlari, hallollik va korrupsiyaga qarshi kurashishga doir xalqaro standartlar, amaliyotda normativ-huquqiy jihatlarni mosligini ta’minlash jarayoni.

**korrupsiyaga qarshi komplayens-nazorat tizimi** – institutni tashqi va ichki korrupsiya, shuningdek yuqori va o‘rta bo‘g‘in rahbarlari tomonidan yo‘l qo‘yiladigan suiste’molchiliklar va institutni samarasiz boshqarishdan himoyalash tizimidir.

**kontragent** – institut bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan (mehnat munosabatlari bundan mustasno) har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

**manfaatlar to‘qnashuvi** – xodimining shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, institutning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat;

**korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul** – institutda korrupsiyaga qarshi kurashish vazifasi yuklangan tarkibiy tuzilma (xodim);

**korrupsiya** – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday manfaatini qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaviy harakatlar** – bu pora beruvchi manfaatlarini ko‘zlagan holda institut xodimi tomonidan harakat yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya’ni pul, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy xarakterga ega xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish, talab qilish, undirish, taklif qilish, va’da qilish va berish, pora berish va yoki olishda vositachilik qilish, rasmiy jarayonlarni soddalashtirish uchun to‘lovlar qabul qilish, pora olish va boshqa qonunga xilof maqsadlarda shaxs tomonidan o‘z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanishi;

**korrupsiyaviy huquqbazarlik** – sodir etilganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi javobgarlik belgilangan korrupsiya alomatlariga ega xatti-harakat;

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – institut xodimi yoki uchinchi shaxslar tomonidan institut nomidan yoki ularning manfaatlari yo‘lida korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish xavfi;

**kronizm** (favoritizmning do‘stona aloqalarga asoslangan ko‘rinishi) – do‘stlar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish maqsadida hokimiyat yoki mansab vakolatini suvist’emol qilish obro‘sidan foydalanish;

**xodimining shaxsiy manfaatdorligi** – xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida institut xodimi tomonidan, uning yaqin qarindoshi yoki unga aloqador shaxslar tomonidan uning lavozim yoki xizmat majburiyatlarini tegishlicha bajarishiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, foyda, boyliklar va afzalliklar ko‘rinishidagi shaxsiy foyda (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijoriy yoki notijoriy manfaatlar)ni qo‘lga kiritish imkoniyati;

**mahalliychilik** – shaxsni uning nasliy kelib chiqishi (aslzoda yoki mashhur sulola vakili ekanligi va u jamoatchilik tomonidan e'tirof etilganligi) hamda yaqin qarindoshlarining egallab turgan xizmat mavqeい sababli, uning lavozimga qo'yiladigan malaka talablariga mos kelish-kelmasligini hisobga olmagan holda ishga qabul qilish, rotatsiya qilish va lavozimga tayinlash;

**nepotizm** (tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik; favoritizmning qarindoshlik rishtalariga asoslangan ko'rinishi) – o'zining yaqin qarindoshlari yoki do'stlariga noqonuniy imtiyozlar berish maqsadida hokimiyatdan foydalanish va (yoki) ta'sir o'tkazish, shuningdek, yaqin qarindoshlari va (yoki) do'stlariga, ishonchli shaxslarga asossiz mukofotlar hisoblash, institut manfaatlari zarariga, yaqin qarindoshlari va ishonchli shaxslarni ishga qabul qilish va lavozimga tayinlash;

**rasmiyatshiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar** – belgilangan tartib-taomillar yoki harakatlarni sodir etish bilan bog'liq standart tartiblar amalga oshirilishini ta'minlash yoki tezlashtirish maqsadida tegishli qonunchilik va normativ me'yorlar hamda qoidalarda ko'zda tutilmagan noqonuniy ravishda taqdim etiladigan pul mablag'lari, mol-mulk, mulkiy huquqlar, xizmatlar hamda boshqa moddiy va nomoddiy foyda;

**shafelik** – lavozimi yuqoriroq bo'lgan boshqa xodim tomonidan qulay mehnat sharoitlarini yaratib berish shaklidagi himoyasi, uni yoqlab himoya qilish, yonini olishi;

**xodim** – institut bilan mehnat munosabatlariiga kirishgan jismoniy shaxs;

**real manfaatlar to'qnashuvi** – institut xodimining shaxsiy manfaatdorligi bevosita yoki bilvosita institut manfaatlariga zid keladigan va u tomonidan xizmat majburiyatlarining tegishlicha bajarilishiga ta'sir qiluvchi vaziyat;

**institut** – alohida yuridik shaxs (jumladan, turli tashkiliy-huquqiy shakllarda) shaklida tashkil etilgan muassasani o'z ichiga oluvchi institut tuzilmasi:

rektor,

prorektorlar,

dekanlar,

kafedra mudirlari,

tasarrufdagi markazlar,

tasarrufdagi muassasalar;

**korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi** – korrupsiyaviy harakatlarning, O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va institutning korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir ichki hujjatlari buzilishining oldini olish, institut xodimlari tomonidan o'z faoliyatini professional va xulq-atvor jihatdan yuksak darajada amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar;

**homiylik (homiylik yordami)** – yuridik va jismoniy shaxslar (homiylar) tomonidan institut (homiylik qilinayotgan muassasalar)ga ular uchun ishlar bajarib berish, xizmatlar ko'rsatish va xayriya maqsadlarida boshqa turdag'i yordamlarni ko'rsatish, mol-mulk, jumladan, pul mablag'lari taqdim etish bilan ifodalananadigan yordami hisoblanib, ularning natijasida institut muassasalarida homiy oldida o'zaro majburiyatlar yuzaga keladi;

**favoritizm** – institut xodimi boshqa shaxs yoki shaxslar guruhi manfaatlariga qaraganda bitta shaxs va yoki shaxslar guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi, institutda kadrlarni tanlash va joylashtirish, lavozimini ko'tarish, mukofot puli berish, davlat mukofotlariga tavsiya etish, ta'til berish yoki sihatgohlar va xorijiy safarlarga

yuborish, murojaatlar, shuningdek, ish va navbatchilik jadvallarini ko'rib chiqishda ketma-ketlikni yo'lga qo'yish bilan bog'liq vaziyatlarda tartiblarga rioya qilmaslik.

## **2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashning muhim tamoyillari**

2.1. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimi quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi:

**qonuniylik:** institutdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or dunyo tajribasi, shuningdek, institutning ichki hujjatlariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi;

**korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik)** – institut o'z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko'rinishlariga murosasiz (toqatsiz) munosabatda bo'ladi. Institut xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo'lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish qat'ian taqiqlanadi;

**ochiqlik va shaffoflik:** institut xodimlari va kontragentlari, keng jamoatchilikni institutda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida xabardor qilish (maxfiylik va xizmat siri to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini hisobga olgan holda);

**korrupsiyaga qarshi amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning preventiv xususiyatga ega bo'lishi, tizimliligi va yaxlitligi:** korrupsiyaning oldini olish, korrupsiyaviy harakatlarning sodir etilishiga xizmat qiluvchi sabab va shart-sharoitlar hamda korrupsiyaviy xatarlarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi. Korrupsiyaga qarshi joriy etilayotgan chora-tadbirlar va tartib-taomillar aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mos kelishi va institutning barcha funksiyalari va yo'nalishlarini qamrab olgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga birlashtirilishi;

**korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi** – korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etgan institut xodimlari o'zining mavqeい va egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va institutning me'yoriy huquqiy hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;

**ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanish:** institut va uning tasarrufidagi muassasalar korrupsiyaga qarshi kurash tizimini shakllantirishda ilm-fan taraqqiyotining so'nggi yutuqlaridan, shu jumladan, integratsiyalashtirilgan axborot-kommunikatsiya tizimlaridan keng foydalanishga intiladi;

**to'g'ridan-to'g'ri rahbariyatga murojaat qilish:** institutning har bir xodimi korrupsiyaviy harakat sodir etilganligiga doir ishonchli va asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va institutning me'yoriy huquqiy hujjatlarida ko'zdautilgan chora-tadbirlarni qabul qilish uchun institut rahbariga hech qanday to'siqsiz murojaat qilishi mumkin;

**fuqarolik jamiyati vakillari bilan o'zaro hamkorlik:** institut o'ziga yuklatilgan funksiyalarni bajarishda ularning faoliyati ustidan mustaqil va xolis nazoratni amalga oshirish maqsadida fuqarolik jamiyati vakillarini jalb qiladi;

**monitoring, tahlil va baholash:** Institut davriy asosda korrupsiyaga qarshi

kurashish tizimi faoliyati monitoringi va tahlilini amalga oshiradi, shuningdek uning samaradorlik va natijadorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi.

### **korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish**

– korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish maqsadida institutda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini to‘xtovsiz ravishda oshirish choralari ko‘riladi.

### **3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo‘nalishlari Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish**

Institut xodimlari o‘z lavozim majburiyatlarini halol va vijdonan bajarishi, o‘z xizmat mavqeidan yoki institut tasarrufidagi mol-mulklardan shaxsiy manfaatdorlik yo‘lida foydalanmasligi va real manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan saqlanishi lozim.

Institut xodimlari ishga qabul qilinayotganda, lavozimi ko‘tarilayotganda va rotatsiya qilinayotganda har yili va tegishli vaziyatlar, shart-sharoitlar yuzaga kelishiga qarab manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligiga doir axborotni ochiqlashi lozim.

Manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

a) xodimning yaqin qarindoshlari va yoki unga aloqador shaxslar unga bevosita bo‘ysunadi;

b) xodim yaqin qarindoshlari va yoki unga aloqador shaxslarga nisbatan xodimlarga oid qarorlarni qabul qilish (jumladan, ish haqi yozish va to‘lash, mukofotlar, ustama va boshqa mukofot turlari tayinlash va ularning summasini belgilash) da ishtirok etadi;

c) xodim va yoki uning yaqin qarindoshlari tijorat, institut ulushi yoki aksiyalariga ega (xodim va yoki uning yaqin qarindoshlari aksiyadorlik jamiyatining Respublika fond birjasi yoki boshqa fond birjalarida ommaviy muomalada bo‘lgan aksiyalarining besh foizidan kam qismiga egalik qilayotgani bilan bog‘liq holatlar bundan mustasno);

d) xodim yoki uning yaqin qarindoshlari har qanday institut (jumladan, tijorat va nodavlat notijorat tashkilotlar) boshqaruvida ishtirok etadi;

e) xodim uning yaqin qarindoshi va yoki unga aloqador shaxs mas’ul hisoblangan institut, uning tasarrufidagi markaz yoki muassasaning ma’lum bir funksiyasiga nisbatan nazoratni amalga oshiradi;

f) xodim shaxsiy manfaatdorligi bor yoki uning yaqin qarindoshlari hisoblangan shaxslardan tovar, ishlar yoki xizmatlar sotib olishga doir qarorlarni qabul qilishda ishtirok etadi;

g) xodim yaqin qarindoshlar va ularning farzandlari, o‘ziga aloqador shaxslar hamda ularning farzandlari, shuningdek tasarrufdagi muassasalarning boshqa shaxslari bilimi va vakolatini baholaydi (yakka o‘zi yoki kollegial tarzda) va ularni baholash shaxsiy manfaatdorlik sababli noxolis bo‘lishi mumkin;

h) xodim grant mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy jamoa tarkibiga yaqin qarindoshlar va ularning farzandlari, o‘ziga aloqador shaxslar va ularning farzandlari, shuningdek ularga nisbatan qaror qabul qilish shaxsiy manfaatdorlik sabab noxolis bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslarni qo‘sish to‘g‘risida qaror qabul qiladi (yakka o‘zi yoki kollegial tarzda);

i) xodim yaqin qarindoshlar va ularning farzandlari, o‘ziga aloqador shaxslar va ularning farzandlari, shuningdek ularga nisbatan qaror qabul qilish shaxsiy manfaatdorlik sabab noxolis bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslarni boshqa lavozimga o‘tkazish, tiklash to‘g‘risida qaror qabul qiladi (yakka o‘zi yoki kollegial tarzda);

j) shuningdek 11-band a-i kichik bandlarida sanab o‘tilgan vaziyatlar, agar qaror favoritizm, nepotizm, kronizm, urug‘-aymoqchilik, mahalliychilik, shafelik sababli qabul qilinayotgan bo‘lsa.

Mazkur bandda sanab o‘tilgan vaziyatlar ro‘yxati yakuniy hisoblanmaydi. Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini aniqlash uchun har bir alohida holat barcha mavjud shart-sharoitlarni hisobga oлган holda yakka tartibda ko‘rib chiqiladi.

Institut xodimlari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi va uni tartibga solishga doir axborotni ochiqlash jarayoni institut manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi nizomda belgilab qo‘yilgan.

Manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash uchun samarali nazorat tartib-taomillari institut xodimlarining uchinchi shaxslar bilan o‘zaro aloqasi ro‘y beradigan barcha funksiyalarga joriy etilishi lozim (masalan, tanlov savdolarini tashkil qilish, reytinglarni hisoblash va h.k.).

### **Ish yuzasidan sovg‘alar va mehmondo‘stlik belgilari**

Institut xodimlariga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishi doirasida jismoniy va yuridik shaxslardan har qanday ish yuzasidan sovg‘alar mehmondo‘stlik belgilari, jumladan qarz berish, kafolatlar, kafillik, mukofot, moddiy yordam, naqd pulsiz va naqd pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari, qimmatbaho qog‘ozlar, kriptovalyuta, boshqa moddiy qadriyatlar yoki xizmatlar ko‘rinishidagi rag‘bat vositalarini olish taqilanganadi.

Institut xodimlari tomonidan rasmiy delegatsiyalar tarkibida, rasmiy, jumladan chet eldag‘i tadbirlarda olingan har qanday sovg‘alar qiymatidan qat’iy nazar, institutning mulkiga topshirilishi lozim.

Institutda ichki korrupsiyaning oldini olish maqsadida xodimlar o‘rtasida xizmat majburiyatlarini qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan va xodim shaxsi bilan bog‘liq deb e’tirof etilgan sovg‘alarni berish qoidalari belgilab qo‘yilgan;

sovg‘a oluvchi uchun manfaatlar to‘qnashuvi vaziyatini keltirib chiqarmasligi va sovg‘a beruvchi oldida biror-bir majburiyatlarni yuzaga keltirmasligi lozim;

sovg‘a ochiq-oydin beriladi, sovg‘a berilayotgani yashirilmaydi;

sovg‘ani faqat umume’tirof etilgan bayramlar (tavallud ayyomi, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan berishga ruxsat etiladi;

sovg‘alar institutning kamida uchta xodimi ishtirokida berilishi lozim;

sovg‘ani berish chog‘ida tabrik so‘zi aytilib, unda sovg‘a berish uchun sabab bo‘lgan voqeа-hodisa aniq bayon etiladi;

sovg‘aning umumiyligi (barcha soliq va yig‘imlar bilan birga) bazaviy hisoblash miqdorining 5 (besh) barobaridan oshmasligi lozim;

institutning bir xodimi ikkinchi xodimiga sovg‘a olish uchun sarflaydigan summa miqdori har holatda bazaviy hisoblash miqdorining 1 (bir) barobaridan oshmasligi lozim.

Shubha (gumon)lardan holi bo‘lish uchun har qanday bayramlar (jumladan, lekin cheklanmagan holda tug‘ilgan kun, farzand tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro

xotin-qizlar kuni, Yangi yil va h.k) munosabati bilan mazkur Siyosatning 14 va 15-bandlarida keltirib o‘tilmagan boshqa institut xodimlari, hamkorlar va kontragentlar, boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan mazkur Siyosatning 14-bandida sanab o‘tilgan sovg‘alar va moddiy boyliklar olish taqiqlanadi.

Institut nomidan xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar va boshqa ish yuzasidan (xizmat) uchrashuvlarida sovg‘alar berish rahbar buyrug‘iga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Sovg‘a berish, uni qabul qilishning qonuniyligida shubha tug‘ilgan taqdirda institut xodimi institutda korrupsiyaga qarshi kurash uchun mas’ul bo‘lim (xodim)ga maslahat so‘rab murojaat qilishi lozim.

### **Institut xodimlarining ish faoliyati yuzasidan o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi**

Institut xodimlarining xalqaro va boshqa vazirlik tizimlari taklifiga ko‘ra ish faoliyati yuzasidan o‘tkaziladigan tadbirlari (ko‘rgazmalar, seminarlar, konferensiyalar va h.k.)da ishtirok etishiga quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda ruxsat etiladi:

tadbir O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda institutning boshqa ichki hujjatlariga mos kelsa;

tadbir institut yoki taklif etgan tomonning qonuniy manfaatlariga xizmat qilsa; axborot uchrashuvini o‘tkazish tadbirning asosiy mazmuni va yoki maqsadini tashkil etsa;

tadbir institut xodimlari tomonidan u yoki bu qarorlar qabul qilinishiga ta’sir qilmasligi, biror-bir noqonuniy afzalliklarni qo‘lga kiritishni (masalan, buyurtmachilarga tadbirni o‘tkazayotgan loyiha-tadqiqot institutga murojaat qilishni tavsiya qilish) ko‘zlagan yashirin noqonuniy mukofotlash maqsadi bo‘lmashigi lozim;

tadbir bunday tadbirda ishtirok etishga doir ma’lumotlar oshkor qilingan taqdirda institut va taklifni qabul qiluvchi yoki taklif etayotgan tomon mavqeい uchun xatar tug‘dirmasligi lozim;

tadbir umume’tirof etilgan ilmiy va ishbilarmonlik amaliyotiga mos kelishi hamda ko‘ngilochar mazmundagi xususiyat kasb etmasligi lozim;

tadbir mohiyati va qiymatiga ko‘ra o‘rinli bo‘lishi, haddan ziyod hashamatli, qimmat, g‘ayriodatiy bo‘lmashigi va tez-tez takrorlanib turmasligi lozim.

Institut xodimlariga dastur doirasida ishbilarmonlik tadbirini o‘tkazish vaqtining 30%dan ortig‘ini ko‘ngilochar qism tashkil etadigan, institutning xulq-atvor va korrupsiyaga qarshi tamoyillarini buzadigan, obro‘siga putur yetkazish xavfini tug‘diradigan yoki ko‘ngilochar joylar, ishbilarmonlik tadbirlari o‘tkazish uchun maqbul bo‘limgan joylarda o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish taqiqlanadi.

3.3.3 Agar ishbilarmonlik tadbirlari (seminar, simpozium, davra suhbatlari va h.k.) tashkilotchisi institut bo‘lsa, u holda bunday ishbilarmonlik tadbiri ushbu siyosatda qayd etilgan talablarga mos kelishi lozim.

### **Kadrlar bilan bog‘liq jarayonni tartibga solish (xodimlarni tanlash, lavozimini oshirish, moddiy rag‘batlantirish)**

Institut xodimlarini tanlash, attestatsiyadan o‘tkazish va ularning faoliyatini baholash, jumladan mukofot, ustamalar va rag‘batlantirishning boshqa turlarini amalga oshirish jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng huquqli va xolis hisoblanib, mazkur Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga mos kelishi lozim.

Nomzodlarni tanlash va tayinlash jarayonida tekshirish bo‘yicha qo‘llanma va

institutning boshqa ichki me'yoriy huquqiy hujjatlarida, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish, kompleks ravishda tekshirish bilan birga amalga oshiriladi.

Xodimlarga oid masalalarda qaror qabul qiluvchi xodimlarning lavozimini oshirganda, lavozimga tayinlaganda, kadrlar zahirasini shakllantiradigan va h.k.larda nomzod (xodim)larga har qanday asossiz imtiyozlar taqdim etish taqiqlanadi, jumladan agar mazkur imtiyozlar pora olish natijasida yoki manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi sababli taqdim etilsa (masalan: favoritizm, nepotizm, urug'-aymoqchilik, mahalliychilik, shafelik qilish sababli).

Bo'sh lavozimlarga saralab olish, egallanayotgan lavozimga qo'yiladigan talablarga muvofiq tanlov asosida yoki boshqa usul yordamida (agar bunday usul institutning ichki me'yoriy huquqiy hujjatlarida ko'zda tutilgan bo'lsa) amalga oshirilishi lozim. Bunda nomzodning malakasi, kasbiy va ilmiy yutuqlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

Institutda xodimlar faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichlarini baholash tartib mezonlari ishlab chiqilishi va xodimlar shu asosida rag'batlantirilishi lozim. Mazkur ko'rsatkichlar xolis, shaffof va institut xodimlar tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lishi lozim.

### **Tekshiruvlar o'tkazish va institut faoliyatini o'rghanish**

Turli tekshiruvlar, o'rghanishlar, monitoring o'tkazishda (keyingi o'rnlarda – tekshiruv obyektlari) institut xodimlari:

manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga yo'l qo'ymasligi;

tekshiruvlar, o'rghanishlar, monitoring obyekti tekshiruvlarini yakka tartibda amalga oshirishiga yo'l qo'yilmaydi;

tekshiruv, o'rghanish, monitoring obyektiga tashrif buyuruvchilar yoki ularning vakillari tasarrufidagi muassasalar yoki boshqa obyektlarga shaxsan tashrif buyurganda ular bilan yolg'iz qolmasligi;

yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qoidabuzarliklarni soxtalashtirish maqsadida tekshiruv, o'rghanish o'tkazish, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalarini noto'g'ri talqin qilmasligi, tekshirilayotgan obyekt xodimlarini aniqlangan faktlarni huquqni muhofaza qilish yoki boshqa davlat organlariga topshirish bilan qo'rqtmasligi;

o'rghanish, monitoring obyekti xodimlariga tahdid qilinmasligi;

hujjatlarni so'rab olish va tekshiruv, o'rghanish, monitoring predmetiga ta'luqliy bo'limgan masalalar bilan qiziqmasligi lozim;

tekshiruv, o'rghanish, monitoring davomida aniqlangan har bir qoidabuzarlikning qonuniy va professional baholanishini ta'minlashi;

qoidabuzarliklarning video yoki fotoqaydini amalga oshirishi (o'rni kelganda), institut tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga qoidabuzarliklarga oid ma'lumotlarni kiritishi;

agar tekshiruv, o'rghanish, monitoring obyekti vakillari institut xodimiga aniqlangan qoidabuzarliklarni yashirish maqsadida pora yoki har qanday moddiy boyliklar xizmatlar taqdim etayotgan bo'lsa, bu haqda tekshiruv yuzasidan ishchi guruh rahbariga va institutdagи korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodimlariga zudlik bilan xabar berishi;

tekshiruv, o'rghanish, monitoring obyekti vakillari institut xodimlarining xulq-atvor tamoyillariga muvofiq xolis munosabatda bo'lishi shart.

## **Vakolatli davlat organlari, kontragentlar va uchinchi shaxslar bilan shaffof va samarali o‘zaro hamkorlikni ta’minlash**

Institutning mazkur Siyosat tamoyillari va talablari hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik normalariga zid har qanday to‘lovlarni va yoki harakatlarni amalga oshirish uchun yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa uchinchi shaxslarni jalg qilmaydi.

Kontragentlar bilan munosabatlarda institut qonuniylik va shaffoflik tamoyillariga amal qiladi.

Institutda obyektiv mezonlardan foydalanishga asoslangan yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa kontragentlarni tanlashning halol, ochiq va shaffof jarayoni, shuningdek sotib olinayotgan mahsulot, ishlar, xizmatlar qiymatini belgilashning shaffof tartibi joriy etilib, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va institutning ichki me’yoriy huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

### **Kontragentlar bilan o‘zaro aloqa hamkorlik:**

İnstitutda kontragentlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnomalar va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq potensial kontragentning ishonchliigi, jumladan u o‘tmishda korrupsiyaviy faoliyatga jalg qilingan yoki qilinmaganligi, institut xodimlari bilan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligini aniqlaydi;

potensial kontragent, jumladan xarid tartib-taomillari g‘olibini u bilan shartnomaga matniga maxsus korrupsiyaga qarshi shartlarni qo‘sish orqali o‘zining korrupsiyaga qarshi tamoyil va talablari haqida xabardor qiladi.

Vakolatli davlat organlari bilan o‘zaro aloqa-hamkorlik qilishda (masalan, litsenziya berish, ixtisoslashtirilgan kengashlarda ishtirok etish, turli hujjatlari kelishishda va h.k) institut hujjatlarni ko‘rib chiqishning shaffofligi va xolisligini ta’minlaydi hamda zarur hollarda mazkur davlat organlari tomonidan salbiy va boshqa xulosalarga kelish sabablari xususida qo‘sishimcha ma’lumotlarni talab qiladi.

### **Xayriya va homiylik faoliyatining shaffof va samarali jarayonini ta’minlash**

Qonunchilikda belgilangan holatlarda institut xayriya va homiylik yordamini qabul qilishi mumkin. Bunday yordamni olishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki shartnomada ko‘rsatilgan maqsadlarga samarali va maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlash, shuningdek xayriya va homiylik faoliyatiga doir axborotni institutning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida ochiqlash bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshiriladi.

Institut tomonidan qabul qilinayotgan xayriya yoki homiylik yordami yashirin mukofot tarzida bo‘lmasligi va institutning alohida xodimlari tomonidan xayriya qiluvchi yoki homiy, uning yaqin qarindoshlari, ularga aloqador shaxslar, shuningdek xayriya qiluvchi yoki homiyda ularga nisbatan shaxsiy manfaatdorligi bo‘lgan shaxslar foydasiga qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatmasligi lozim.

Institut xodimlari o‘z nomidan va institutda lavozim majburiyatlarini bajarishdan bo‘sh vaqtlarida davlat yoki notijorat tashkilotlarga beg‘araz professional xizmatlar ko‘rsatish (masalan, hujjatlarni ishlab chiqish jarayonida maslahat berish yoki ishtirok etish) shaklida xayriya yordami ko‘rsatish huquqiga ega.

Institut xodimlari tomonidan beg‘araz asosda professional xizmatlar ko‘rsatish O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, institutning qonuniy manfaatlari, shuningdek mazkur Siyosat tamoyillari va talablara zid kelmasligi lozim.

3.7.3 Institut tomonidan xayriya yoki homiylik yordamini olishda quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- xayriya qiluvchi yoki homiy bilan albatta shartnoma tuzish, unda xayriya yoki homiylik yordamini olish va undan foydalanish maqsadlari, yordam shakllari, yordamning pul ifodasidagi summasi, xayriya qiluvchi yoki homiy oldida kelib tushgan yordamdan maqsadli foydalanish to‘g‘risida hisob berish usuli belgilab qo‘yilishi lozim;
- bunday shartnomaga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish;
- institutning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-saytida olingan xayriya yoki homiylik yordamiga doir axborotni joylashtirish.

### **Ichki me’yoriy huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi**

3.8.1. Ichki hujjatlarning huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda, institutning korrupsiyaga qarshi kurashishda mas’uli yuristi bilan xamkorlikda korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratuvchi korrupsiyaviy omillar mavjudligi va ularni hujjatlardan chiqarib tashlash maqsadida ekspertizadan o‘tkazadi.

### **Institut faoliyati sohasiga yangi texnologiyalarini joriy etish**

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida institut xodimlari o‘z funksiyalari va lavozim majburiyatlarini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiradi (agar imkon bo‘lsa).

3.9.2. Davlat xaridlari doirasida tanlov savdolarini o‘tkazishda institut xodimlari axborot texnologiyalaridan foydalanadi va tanlov savdolari ishtirokchilari bilan o‘zaro aloqani elektron shaklda onlayn rejimida boshqa elektron tizimlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini qo‘llagan holda amalga oshiradi.

### **Instituttdagi faoliyatni videoqayd qilish va uning translyatsiyasi**

Institut binolarida xodimlar faoliyatini nazorat qilish maqsadida audio va videoyozuv kameralari o‘rnatilib, ulardagi yozuvlar institutning Korrupsiyaga qarshi kurashish mas’ul xodimlari tomonidan nazorat qilinadi.

3.10.2. Institutning internet tarmog‘idagi rasmiy saytlarida korrupsiya xavf-xatari yuqori bo‘lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyasi joylashtiriladi (xususan, xodimlar bilan suhbat o‘tkazish, testdan o‘tkazish, komissiya yig‘ilishlari va h.k.).

## **4-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi elementlari**

### **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha muhim ichki hujjatlar mavjudligi**

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosini:

- mazkur Siyosat;
- institut xodimlarining odob-ahloq qoidalari;
- institutda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizomda aks ettirilgan tamoyillar va talablar tashkil etadi.

Institut ma’muriyati xodimlarga oliy rahbarlik namunasini ko‘rsatishi lozim.

Institut rektori va prorektorlar, shuningdek institut tarkibiy bo‘limlari boshliqlari o‘ziga bo‘ysunuvchilar, fuqarolar va yuridik shaxslarga nisbatan munosabatlarda halol, odil va mustaqil xulq-atvor namunasi bo‘ladi va shu orqali korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Institut rektori va prorektorlar, shuningdek, institut tarkibiy bo‘limlari rahbarlari, tizim faoliyatining xavf-xatar funksiyalari (yo‘nalishlari)ga korrupsiyaga qarshi samarali

chora-tadbirlar va tartib-taomillarni joriy etish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini barpo etish va amalga oshirishga nisbatan liderlikni namoyish qiladi, jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish dastur yo‘l xaritasini ishlab chiqishda ishtirok etgan va uning ijrosi ustidan joriy nazoratni amalga oshirgan holda.

### **Korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash**

Institut o‘z faoliyatiga xos korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkiliy tuzilmalar funksiyalarining xususiyati, jamiyat va boshqa shaxslar bilan o‘zar munosabatlar, shuningdek institutda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotiga muvofiq tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holda amalga oshiradi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va baholash doirasida korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiyalarini aniqlash maqsadida institut faoliyatining barcha yo‘nalishlari, ularda mavjud korrupsiyaga qarshi nazoratlar va tartib-taomillar, ularning aniqlangan xavf-xatarlarini kamaytirish uchun yetarliligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayonida institut tegishli funksiyalar rahbarlari institutdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tuzilmalari, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ullarning faol ko‘magi va nazorati ostida ishtirok etadi.

Institutning korrupsiyaga nisbatan murosasizlik (toqatsizlik) tamoyilini hisobga olgan holda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish zaruratini yuzaga kelishi ehtimolini va ta’sir darajasidan qat’iy nazar e’tirof etadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bir yilda bir martadan kam bo‘lmagan vaqtida o‘tkaziladi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari institutning rahbari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Aniqlangan xavf-xatarlarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlar va tartib-taomillar institutning korrupsiyaga qarshi dastur-yo‘l xaritalarida aks ettiriladi.

### **Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ul bo`limlar va shaxslar**

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali tizimini shakllantirish uchun alohida korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi (keying o‘rinlarda – bo‘lim) hamda korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish mas’ul xodimlarini (keying o‘rinlarda – mas’ul xodim) tashkil etilgan.

Bo‘lim hamda mas’ul xodimlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom asosida amalga oshiradi va bevosita institut rahbarlariga bo‘ysunadi.

Institut rahbari korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi hamda tizimdagи korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish mas’ul xodimlarini korrupsiyaga qarshi vazifalarni amalga oshirishi uchun yetarli darajadagi mustaqillik va zarur resurslar bilan, hamda faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur bilimlar va vakolatlarga ega bo‘lgan yetarli darajadagi shtat birliklari bilan ta’minlaydi.

Nazorat bo‘limi xodimlari har yili korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha malakasini oshirishi va korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaga qarshi tizimni shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan tadbirlarda ishtirok etishi zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

4.3.6 Institutning xodimlar bo‘limi, institutda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarida nazarda tutilgan tartibda xodimlarning yaqin qarindoshlari va ularga aloqador shaxslarga doir ma’lumotlarning tizimli va o‘z vaqtida yig‘ilishi, tahlil qilinishi va aktuallashtirilishi uchun javob bor.

Institutda Odob-ahloq komissiyalari faoliyat yuritadi.

Institutdagi Odob-ahloq komissiyalari institut xodimlarning etik xulq-atvor qoidalari bilan belgilangan xulq-atvor me’yorlariga rioya qilish masalalarini ko‘rib chiqadi, shuningdek, institutda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizomda belgilangan tartibda manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq vaziyatlarni tartibga solish jarayonida ishtirok etadi.

### **Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtiruvchi korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar**

Institutda nafaqat umumiy nazorat muhiti, balki korrupsiyaga qarshi nazorat tadbirlari va institut faoliyatining xavf-xatarli yo‘nalishlarini, funksiyalari, tartib-taomillarini qamrab oluvchi korrupsiyaga qarshi kurashning kompleks tizimini joriy etadi.

Institutda korrupsiyaga qarshi nazorat tadbirlari va tartib-taomillari samaradorligi, shuningdek, ularning aniqlangan xavf-xatarlar darajasiga mutanosibligi, institut xodimlari uchun aniq va tushunarli, fuqarolik jamiyati uchun shaffofligini ta’minlashga intiladi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joriy etilayotgan nazoratlar va tartib-taomillar institutning korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarida aks ettirilib, mazkur Siyosat va institutning tegishli ichki hujjatlari bilan mustahkamlanib qo‘yiladi.

### **Xabar berish, aloqa o‘rnatish va maslahat berish**

Institut korrupsiyaviy xavf-xatarlarni qisqartirish va jamiyat xabardorligini oshirish maqsadida mazkur Siyosat va o‘zлari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlariga oid asosiy axborotlarni rasmiy veb-saytlarida joylashtiradi.

Institut barcha kuch va imkoniyatlarini xodimlar va boshqa manfaatdor shaxslarga quyidagilar orqali O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi normalari, shuningdek joriy etilgan korrupsiyaga qarshi tamoyillar, chora-tadbirlar va talablar to‘g‘risida xabar berish va ularni tushuntirishga sarflaydi:

- institut rahbariyati tomonidan elektron manzil va boshqa aloqa vositasi orqali institutda xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qabul qilingan normalar va talablarga rioya qilinishi muhim ekanligiga doir doimiy xabarlar yuboradi;
- institut xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘qitishga doir yillik rejaga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish asoslari bo‘yicha muntazam va tizimli ravishda bir yilda kamida bir marta o‘qitiladi hamda testdan o‘tkaziladi;
- yangi xodimlarni ishga qabul qilayotganda ushbu Siyosat va institutning korrupsiyaga qarshi kurashishga doir boshqa ichki hujjatlari bilan albatta tanishtirgan holda, ular uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha majburiy kursslarni tashkil etadi;
- institutda korrupsiya xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar uchun korrupsiyaga

qarshi o‘qitishning qo‘shimcha dasturlari belgilanadi. O‘tkazilgan o‘quv kurslari treninglarga oid ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda institutning kadrlar bo‘limi (kadrlar bo‘yicha mutaxassis)da saqlanadi;

- mavzuga doir audio va videoroliklar hamda institut xodimlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish va ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi xabardorligini oshirishga qaratilgan boshqa axborot materiallaridan foydalangan holda korrupsiyaga qarshi kampaniyalar tashkil qilish;
- institut xodimlari tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilishiga doir faktlar va gumonlar, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va h.k.lar to‘g‘risida xabar berish uchun umumfoydalanuvdagisi aloqa kanallari bilan ta’minalash (korrupsiya faktlari to‘g‘risida xabar berish mumkin bo‘lgan usullarga doir batafsil ma’lumotlar mazkur Siyosatning 6 bobida keltirilgan);
- mazkur Siyosat qoidalari (mazkur Siyosatning 5 bobida ko‘rsatilgan)ni qo‘llash yoki institut korrupsiyaga qarshi kurashish “komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi va korrupsiyaga qarshi kurashish mas’ul xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va tartib-taomillarni amalga oshirish bilan bog‘liq savollar tug‘ilganda, institut xodimlariga maslahatlar berish;
- tasdiqlangan reja asosida Nazorat tuzilmasi institutda korrupsiyaga qarshi xulq-atvorni faol tarzda targ‘ib qilishi;
- institut xodimlari mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritishi, institutda mazkur Siyosat kuchga kirgan vaqtadan boshlab institutning yangi xodimlari bilan tuziladigan, shuningdek shartlarni qayta ko‘rib chiqish doirasida xodimlarning amaldagi mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalarni kiritadi;
- institut kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiyлari bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish, korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Nizom kuchga kirgan vaqtadan boshlab institutning yangi kontragentlari, hamkorlari, xayriya qiluvchilari, homiyлari bilan tuziladigan shartnomalarga kiritiladi. Korrupsiyaga qarshi shartlar institutning barcha shartnomalariga kiritiladi, xususan, elektron do‘kon, elektron auksion orqali xarid natijalari bo‘yicha va davlat tabiiy monopoliyalari (pochta, elektr energiyasi, gaz ta’minoti, suv ta’minoti, temir yo‘llari, havo yo‘llari va h.k.) bilan tuziladigan shartnomalar bundan mustasno. Korrupsiyaga qarshi shartlar mazkur Siyosat qabul qilinishidan oldin tuzilgan shartnomalarga shartlarni qayta ko‘rib chiqish doirasida va yoki tashabbusga ko‘ra kiritiladi.

### **Monitoring, nazorat va hisobdorlik**

Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ullar institutda amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning doimiy monitoringi, nazorati va ularning samaradorligi, yetarliligi va mutanosibligining baholanishini amalga oshiradi. O‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini shakllantirishga doir tegishli chora-tadbirlar qabul qilinadi.

Monitoring va nazorat institutda korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyotiga va institutning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoringi quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi lozim:

- institut funksiyalari va xususiyatlarining o‘zgarishi, uning tashkiliy-funktsional tuzilmasi, hamda tashqi va ichki omillarning korrupsiyaga qarshi tizimiga ta’sirini tahlil qilish, unga tuzatish kiritish zarurligini, shu jumladan uning muvofiqligini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari asosida ta’minalash;
- institut faoliyatida qo‘llaniladigan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchiligi va hokimiyat organlari tavsiyalarining monitoringi;
- xalqaro va xorijiy tizimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimini yaratish va qo‘llab-quvvatlash masalalariga doir tavsiyalarini monitoringi;
- ommaviy axborot vositalaraning institut yoki xodimlari korrupsiyaviy harakatlarga jalb qilinganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, shuningdek institut kontragentlari va yoki hamkorlari to‘g‘risida xuddi shunday ma’lumotlar mavjudligi yuzasidan monitoring;
- samarasiz nazoratlar va tartib-taomillarni aniqlash uchun ularni takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi tizim ishonchliligi va samaradorligini ta’minalash maqsadida tanlov asosida institut ichki jarayonlari va funksiyalarini monitoring qilish;
- institutning korrupsiyaga qarshi dasturi yoki yo‘l xaritasi bandlari bajarilishining to‘liqligi va samaradorligini monitoring qilish;
- institut xodimlari tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi talablar va joriy etilgan tartib-taomillarga rioya qilinishini tekshirish;
- institut xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyillar va talablar to‘g‘risida xabardorligini tekshirish.

Institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligi (korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud emasligi) quyidagi tadbirlarni amalga oshirish orqali tekshiriladi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ichki auditini o‘tkazish, jumladan, institutda belgilangan talablar va tartib-taomillarga rioya etilishini nazorat qilish;
- korrupsiyaga qarshi tizimning ISO 37001:2016 standartiga muvofiqligining ichki auditini o‘tkazish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish tadbirlari yakunlari va natijalari korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarida aks ettiriladi. Hisobotlarni shakllantirish va taqdim etish tartibi institutda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotlarini shakllantirish va taqdim etish reglamentida mustahkamlab qo‘yilgan.

### **Qonunbuzarliklarga javob qaytarish va aybdor xodimlarni javobgarlikka tortish**

Mazkur Siyosatga mos kelish va institutning korrupsiyaga qarshi talablari va tartib-taomillariga rioya qilish har bir xodimning o‘z lavozim majburiyatlarini bajarish

doirasidagi majburiyati hisoblanadi. Xodimlar mazkur Siyosat va institutning boshqa ichki hujjatlarida belgilab qo‘yilgan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid talablar va tartib-taomillarni buzganligi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi.

Institut rahbarlariga bevosita o‘zining bo‘ysunuvidagi xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar uchun shaxsan javobgarligi yukланади.

Korrupsiyaga nisbatan **murosasizlik (toqatsizlik)** tamoyiliga amal qilgan holda institutning barcha xodimlariga bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali har qanday korrupsiyaviy harakatlarda ishtirok etish qat’iyan man etiladi, ya’ni:

- o‘z lavozim mavqeidan noqonuniy foydalanish, shuningdek xizmat mavqeい va vakolatlarini suiste’mol qilish maqsadida har qanday shaxslardan noqonuniy foya олишга rozilik berish yoki olish, talab qilish, ta’magirlik qilish, shuningdek, xodim tomonidan o‘z lavozim mavqeidan institutning qonuniy manfaatlariga zid ravishda, jumladan o‘zi va uchinchi shaxslar uchun noqonuniy foya олиш maqsadida foydalanish;
- davlatning mansabdor shaxsi yoki boshqa har qanday shaxsga uning harakatlariga ta’sir o‘tkazish (harakatsizligini ta’minlash) va yoki shaxs, jumladan institut manfaatlari yo‘lida noqonuniy afzalliklarni qo‘lga kiritish maqsadida lavozim majburiyatlarini noqonuniy tarzda bajarishga undash, noqonuniy foya (pora, poraxo‘rlik)ni taklif qilish, va’da berish, bunga ijozat berish, taqdim etish;
- rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish, olish yoki amalga oshirish;
- poraxo‘rlik yoki tijoriy pora olishda vositachilik qilish, jumladan pora oluvchiga noqonuniy foydani topshirish yoki pora oluvchi va beruvchi o‘rtasida kelishuvga erishishda vositachilik qilish;
- institut xodimlarining korrupsiya belgilarini mavjud bo‘lgan yoki uni sodir etish, jumladan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzaga kelishiga xizmat qiluvchi boshqa harakatlari harakatsizligi.

Xodimlar o‘z rahbariga va institutning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullarga ularni korrupsiyaviy harakatlarini sodir etishga undash maqsadida murojaat qilgan shaxslar bilan bog‘liq, shuningdek, ularga ma’lum bo‘lgan boshqa xodimlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlarga oid barcha holatlar to‘g‘risida xabar berishi lozim.

Korrupsiyaga nisbatan **murosasizlik (toqatsizlik)** tamoyilini hisobga olgan holda institutda xodimlar tomonidan korrupsiyaviy harakatlar sodir etilganligiga doir har bir asosli gumon bo‘yicha institutda xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish bo‘yicha reglament va boshqa ichki hujjatlarda ko‘zda tutilgan tartibda hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq xizmat tekshiruvi o‘tkaziladi.

Mazkur Siyosat, korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va yoki institut boshqa ichki hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarni buzgan xodimlar lavozimi, xizmat muddati va boshqa omillardan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va institutning ichki me’yoriy huquqiy hujjatlari doirasida va ularda ko‘zda tutilgan asoslar bo‘yicha javobgarlikka tortiladi.

Korrupsiyaviy harakatlar aniqlangan taqdirda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar ularni yuzaga kelish sabablari va imkoniyatlarini tahlil qiladi va

doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtiradi.

Ichki tekshiruvlar natijalari doimiy ravishda rahbarga, institut hay'ati va tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga taqdim etiladi.

Institut korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni aniqlashda, shuningdek, tergov jarayonida huquqni muhofaza qilish va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi.

### **5-bob. Institut xodimlariga maslahat berish**

5.1. Institut xodimlarida O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligi talablari, mazkur Siyosat qoidalari va institutda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid boshqa ichki me'yoriy huquqiy hujjatlar va tartib-taomillar bilan bog'liq har qanday savollar tug'ilgan taqdirda, ular maslahat so'rab o'zining tarkibiy bo'lim rahbariga yoki korrupsiyaga qarshi kurash uchun mas'ul shaxslariga murojaat qilishlari lozim.

### **6-bob. Korrupsiyaviy harakatlarga doir xabarlar**

Institut xodimlarining harakatlari qonuniyligi yoki etikaga mosligi yuzasidan shubha, korrupsiyaviy harakatlari yoki boshqa qoidabuzarliklar bilan bog'liq taxminlar yoki sodir etilganligiga oid asosli gumonlar yuzaga kelgan taqdirda ular haqida institutning mavjud aloqa kanallari orqali ochiq xabar berilishi mumkin.

Institut o'z vakolatlari va mavjud imkoniyatlari doirasida qoidabuzarlikka oid asosli axborotni taqdim etgan shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Institut o'z xodimlari manfaatlarini himoya qiladi va boshqa xodimlarning shubhali xulq-atvori yoki mazkur Siyosatning korrupsiyaga qarshi kurashish talablari buzilgan bo'lishi mumkinligi haqida vijdonan xabar bergen xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimini tushirish, kamsitish, zulm o'tkazish, ta'qib qilish singari o'ch olish harakatlariga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydi.

Korrupsiyaviy harakatlarga oid xabarlar quyidagi aloqa kanallari:

- (66) 237-36-25, (66) 237 15 93 telefonlari va institutda o'rnatilgan boshqa telefon raqamlari orqali;
- ijtimoiy tarmoqlar, masalan Telegram bot.-kanali
- institutning [samgasi@edu.uz](mailto:samgasi@edu.uz) elektron pochta manzili;
- institutning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl;
- internet tarmog'idagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, O'zbekiston Respublikasining hukumat portali, institut rahbarining virtual qabulxonasi;
- institut xodimlari tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq o'ztkaziladigan shaxsiy qabul;
- institut muassasalari devonxonasiga yuboriladigan yozma murojaatlar;
- institut Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar orqali;
- huquqni muhofaza qilish organlari orqali taqdim etilishi mumkin.

Institutning aloqa kanallari orqali kelib tushgan barcha xabarlar institut mas'ul shaxslari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, institutdagi korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ularga ishlov berish reglamenti va institutning boshqa ichki

hujjatlariga muvofiq o‘z vaqtida va xolisona ko‘rib chiqiladi.

Korrupsiyaviy harakatlar to‘g‘risida anonim tarzda berilgan xabarlar ham ko‘rib chiqiladi, lekin anonim bo‘lib qolishni istagan shaxs ushbu holatda kelib tushgan xabarga javob berish uchun arizachi bilan bog‘lana olmaganda va zarur qo‘srimcha ma’lumotlarni ololmagan taqdirda arizani to‘liq va har tomonlama tekshirilmasligini arizachi tan oladi.

Institut xodimlari tomonidan ataylab yolg‘on xabar yuborish mazkur Siyosat talablarini buzish va etikaga zid xulq-atvor namunasi sifatida baholanadi, bu haqida xabar bergen shaxs esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va institutning ichki hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

Institutda korrupsiya faktlari to‘g‘risida vijdonan xabar bergen institut xodimlari qayd etilgan axborot tasdiqlangan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq rag‘batlantirilishi mumkin.

### **7-bob. Qayta ko‘rib chiqish va o‘zgarishlar kiritish tartibi**

Mazkur Siyosat quyidagi hollarda qayta ko‘rib chiqilishi va tuzash mumkin:

- mavjud korrupsiyaga qarshi siyosatlar va tartib-taomillarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini yuzaga keltiruvchi O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi qonunchiligi o‘zgarganda;
- samarasiz korrupsiyaga qarshi nazorat tadbirlari va tartib-taomillari aniqlanganda, shuningdek institut faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni takomillashtirish zarurati yuzaga kelganda;
- institutning tashkiliy tuzilmasi yoki funksiyalarining o‘ziga xos jihatlari o‘zgarganda va h.k.

Ushbu korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi siyosat barchaga ma’lumot uchun e’lon (yetkazish) qilinadi.